



A X B O R O T X A T I

Samarqand sh.

2018 yil 2-3 iyun

2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash” yiliga bag‘ishlab, **2018 yil 2-3 iyun kunlari Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida** yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni ilmiy tadqiqot sohasida ilmiy yangiliklar, ixtirolar qilish, innovatsion texnologiyalar yaratish jarayonlariga keng jalb etish, ularning iqtidori, ilmiy salohiyati va shijoatidan unumli foydalanish va intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida **“Ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash-mamlakat taraqqiyotining muhim omili”** mavzusida yosh olimlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning an‘anaviy XV respublika ilmiy-texnik konferensiyasi o‘tkaziladi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha materiallar taqdim etish mumkin:

- ✓ *Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitekturaviy loyihalash tizimini takomillashtirish, shaharozlik, dizayn, san‘atshunoslik va kompyuter grafikasi sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari;*
- ✓ *Bino-inshootlarni loyihalash, qurish hamda energiya samaradorligini oshirish, qurilish konstruksiyalari, mahalliy xom-ashyolar asosida yangi qurilish va kompozitsion materiallar yaratish, zamin va poydevorlar, muhandislik kommunikatsiyalari, mashinasozlik, texnika, va texnologiyalarni innovatsion rivojlantirishning dolzarb muammolari;*
- ✓ *Geodeziya, kartografiya, va davlat kadastrlari yagona tizimini rivojlantirishning istiqbollari;*
- ✓ *Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona oqilona foydalanish tizimini takomillashtirish muammolari;*
- ✓ *Iqtisodiyot, turizm, servis va ko‘chmas mulk bozori sohasida faol tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish hamda qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning innovatsion echimlari;*
- ✓ *Axborot kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish va va sohani innovatsion rivojlantirish;*
- ✓ *Kadrlar sifatini oshirish va qayta tayyorlash tizimida innovatsion yondoshuvlar, innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik, arxitektura, qurilish va shaxarsozlik, sohasini rivojlantirishda kadrlar sifatini oshirish muammolari va echimlari.*

Konferensiyaning rasmiy tillari: o‘zbek, rus va ingliz.

Ilmiy anjumanda ishtirok etishni hohlovchilar **3-5 sahifa** hajmdagi va puxta tahrirlangan materiallarini konferensiya to‘plamida chop ettirish uchun **2018 yil 15 maygacha samgasi-konf2018@umail.uz** elektron manziliga yoki Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limiga qog‘oz va elektron ko‘rinishda taqdim etishlari lozim. Konferensiya materiallarini to‘plam shaklida chop etish uchun ishtirokchilar maqola va tezislarni har bir sahifasi uchun **10000 so‘m** miqdorida tashkiliy badal mablag‘ini to‘lashlari zarur.

Konferensiyaning asosiy tadbirlari:

- Ilmiy ma'ruzalarni muhokama etish bo'yicha yalpi va seksiya majlislari;
- Tadqiqotlar yo'nalishlari bo'yicha "Eng yaxshi ilmiy ishlanma", "Eng yaxshi innovatsion g'oya" va "Eng yaxshi ma'ruzachi" tanlovlari o'tkaziladi, g'oliblar sertifikat va diplomlar bilan taqdirlanadilar.

Maqolalarni rasmiylashtirishga quyiladigan talablar:

✓ ilmiy maqolalar matnlari tahrir qilingan holda A4 formatdagi qog'ozga, yuqoridan va pastdan 2 sm., chapdan 2 sm., o'ngdan 2 sm. joy qoldirib, 1 nusxada rasmiylashtiriladi. Maqolaning nomi, 1,5 intervaldan so'ng muallifning ismi va otasining ismi hamda familiyasi bosh harflarda yoziladi, 1 intervaldan keyin tashkilot va shahar nomi ko'rsatiladi. So'ngra 1,5 interval qoldirilib, matnning mazmuni 1,5 intervalli qatorlarda yoziladi. Matnning elektron nusxasi MS Word/rft dasturida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida bo'lishi va 5 betdan oshmasligi lozim.

✓ muallif tomonidan anjumanda ishtirok etish uchun tashkiliy qo'mitaga ilovadagi talabnomaga asosan (familiya, ismi va sharifi, maqola nomi, konferensiya yo'nalishi (sho'ba), tashkilot, lavozim, xizmat manzili, telefon/faks, e-mail) taqdim etilishi lozim.

Konferensiya materiallari to'plamiga qabul qilinmaydigan maqolalar:

- tuzilishi bo'yicha, mazmunan o'quv yoki ommabop (noilmiy) bo'lgan;
- faqat jahon tajribasini yorituvchi va uni milliy innovatsion rivojlantirish muammolariga asosli tarzda moslashtirilmagan;
- faqat tavsiflashga bag'ishlangan va uni qo'llashning natijalarini innovatsion rivojlantirish muammolarini xal etishdagi o'rni ochib berilmagan;
- antiplagiat ko'rinishdagi tahliliy qismga ega bo'lmagan.

Muddatidan kechiktirib topshirilgan yoki talablarga javob bermaydigan maqola va tezislar qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Konferensiya materiallari to'plami mualliflar matnididan bevosita o'zgartirishsiz chop etiladi.

Murojaat uchun tashkiliy qo'mita: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi 70 uy. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi. Tel: (0-366) 237-18-47, Mobil: +99891 551-47-97 E-mail: samgasi-konf2018@umail.uz Lazizbek Toshpo'latovich Ibragimov

Axborot xati SamDAQIning rasmiy <http://samgasi.uz> saytida berilgan.

Ilova

**“Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida innovatsion texnologiyalarni qo’llash-
mamlakat taraqqiyotining muhim omili”**

mavzusida respublika ilmiy-texnik konferensiya ishtirokchisi uchun

TALABNOMA

<i>Familiya, ismi, sharifi (mualliflar uchun)</i>	
<i>Familiya, ismi, sharifi (hammualliflar uchun)</i>	
<i>Tug'ilgan yili va sana</i>	
<i>Ilmiy darajasi</i>	
<i>Ilmiy unvoni</i>	
<i>Ish joyi, o'qish joyi</i>	
<i>Lavozimi</i>	
<i>Maqolaning nomi</i>	
<i>SHo'ba nomi</i>	
<i>Elektron manzil</i>	
<i>Muloqot uchun telefon (kodi bilan)</i>	